



TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI SIFATINI OSHIRISHNING JAHON TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Axmatova Mohigul Ergash qizi
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Hozirgi kunda jaxonda ro‘y berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar va yangiliklar turizm sohasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazib kelmoqda. Hozirda iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar turizm xizmatlar bozorini yaxshilash orqali o‘z iqtisodiyotini barqaror ushlab turish va uni rivojlantirish mumkinligini anglab yetishgan hamda turizm istiqboliga ishongan va uni imkoniyatlaridan foydalanish orqali ko‘plab muammolarni yechish mumkinligiga ishongan mamlakatlar oqilona o‘z siyosatlarini amalga oshirmoqdalar va o‘zlarining milliy iqtisodiyotini yuksaltirishda samarali natijalarga erishmoqdalar. Turizmدا transportni rivojlantirish bo‘yicha har qanday dasturlarni amalga oshirish har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy yondashuv va usullarning barcha turlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Turizmда transportning roli muttasil ortib borishi natijasida turizmда transport infratuzilmasi nafaqat turistik resurslar mavjudligini ta‘minlovchi vositaga, balki turistik resurs xususiyatlariga ham ega bo‘ladi. Shu sababdan turizmда transport infratuzilmasini o‘rganish va uni rivojlantirishning optimal usullarini va bu tizimni boshqarishning samarali yo‘llarini izlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillar bilan bir qatorda transport infratuzilmasining darajasi va tashkil etilishi turizmni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qabul qilinadi. Dunyoning uchunchi eksport sektori sifatida qabul qilingan sayyohlik sanoati ish o‘rinlarini yaratish va butun dunyo xalqlarining turmush darajasini oshirish uchun muhim omildir.

Innovatsiya bu uzluksiz jarayon bo‘lib, raqobatchilar doimiy ravishda yangi mahsulotlar yoki xizmatlarni izlaydilar, shuning uchun ma‘lum bir jarayon yoki mahsulot innovatsiyasi orqali bu ustunlikni saqlab qolish mumkin. Turizm sohasidagi kompaniyalar ustunlikni saqlab qolishga intilayotgan yana bir yo‘l- hamkorlik qilish uchun strategik kelishuvlarni tuzishdan iborat bo‘ladi.

Zamonaviy turizmni har tomonlama ilmiy asoslangan yangi axborot asri bosqichiga o‘tishi va bu transport ta‘minotiga ta‘sir ko‘rsatganligi keng e‘tirof etiladi. Turizm sanoatida raqamlashtirish jarayonining kirib kelishi transport va sayyohlik agentliklari kabi tarmoqlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu rivojlanishning aniq ko‘rsatkichlaridan biri keng ko‘lamli yetkazib beruvchilarga to‘g‘ridan- to‘g‘ri bog‘lanish uchun veb-saytlariga onlayn xaridlardan foydalanish imkoniyatining yaratilganligidir. Axborot-kommunikatsiyalari, sun‘iy yo‘ldosh navigatorlari, sezuvchan moslamalar va 5G texnologiyalaridan foydalanib innovatsiyani joriy qilish imkoni paydo bo‘la boshladi.

Transportning turli tarmoqlaridagi innovatsion texnologik yechimlar transportning soni va uzoq masofadagi bir zumda bosib o‘tish imkoniyatlarini oshirdi, shuningdek yo‘lovchilar uchun qulayliklar yaratish orqali turizmni faollashtirishga va sayyohlarning yangi manzillarni zabt etishga katta hissa qo‘shdi. AQSH va Kanadada turistik sanoatning rivojlanishiga aviatsiya va avtomobillarning o‘rni beqiyosdir. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bo‘lmish Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariyada temir yo‘l va avtobus orqali sayohat qilish bilan birga yengil avtomobillardan foydalanish ham urf bo‘lgan. Skandinaviya mamlakatlarida esa suv transportlariga bo‘lgan ehtiyoj juda yuqoriligi aytilgan fikrlarning isbotidir. Bu esa transport infratuzilmasini ta‘minlash va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq davlat-xususiy sherikchilik va boshqaruv tadbirlari sonini oshib borishiga imkon yaratadi.



Bugungi kunda foydalaniladigan mobil ilovalarning ommalashuvi 2000-yillarga to‘g‘ri keladi. Hamyonbop xalqaro transport, arzon mehmonxonalar va professional sayyohlik agentliklari odamlarni sayohat jarayoniga jalb qilishga undaydi. Turistik ilovalar fenomeni zamonaviy sayohatchilar uchun juda ko‘plab qulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Yo‘nalishlarni topish, til bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish va qabul qiluvchi davlatning madaniyatini hurmat qilish turistik ilovalar tomonidan muvaffaqiyatli taqdim etilishi mumkin bo‘lgan tashqi yordamchi sifatida qabul qilinishi mumkin.

AQSH transport va turizm sektori uchun smartfon ilovalarining evolutsiyasi, transport samaradorligi va tirbandlikni kamaytirishga yordam beruvchi turlari ko‘rib chiqilgan, shuningdek, transport ilovalari va ularni sayohatchilarning xatti-harakatlariga o‘zaro ta‘siri va joriy muammolari o‘rganilgan. Mobil ilovalar odamlarning sayohat tanloviga kuchli ta‘sir ko‘rsatib, bu ta‘sirning aksariyati iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik mexanizmlari mavjud.

Garvard Biznes Maktabi bitiruvchilari bo‘lgan Singapurlik ishbiarmon Anthony Tan va Tan Hooi Ling lar tomonidan 2012-yilda Grab ride-hailing ilovasiga asos solindi. Ushbu yaratilgan ilova qisqa vaqt ichida Janubi-Sharqiy Osiyoning 8 ta (Kambodja, Indoneziya, Filippin, Myanma, Singapur, Vyetnam, Tailand va Malayziya) davlatining 339 ta shaharlarida keng ko‘lamda qo‘llanildi (1.5-rasm). Hozirda kunda ilova foydalanuvchilar tomonidan 185 million marta yuklab olingan - bu ko‘rsatkich Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlar Uyushmasi a‘zosi bo‘lgan 650 millionga yaqin aholining 30 foizgadan sal kamrog‘iga teng.

Grab ilovasi foydalanuvchilarga oziq-ovqat yetkazib berish, oziq-ovqatga buyurtma berish, sug‘urta polislarini to‘lash va sotib olish kabi ko‘plab kundalik ehtiyojlarini o‘z qo‘l telefonlari orqali qondirish imkonini beradi. 2025-yilga kelib Grab mintaqadagi besh million kichik restoran va boshqa korxonalariga raqamli texnologiyalarni qo‘lga kiritishda yordam berishni rejalashtirmoqda. Grab mintaqadagi ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borish orqali 20 ming o‘quvchiga zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatishni ham maqsad qilgan.

Har qanday yoshdagi odamlar Grabdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, Grabda mijozlar va xodimlar uchun juda ko‘p ijtimoiy imtiyozlar yaratilgan. Myanmada ilovadan foydalanuvchilar oziq-ovqat xarid qilish, yetkazib berish xizmatlari, transport xizmatlari, shu jumladan avtomobillarni ijaraga olish va mehmonxonalarni bron qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Internetni Google Map qurilmalari bilan birlashtirib, mijozlarni ketish va kelish joylarini topish mumkin. Aniq xarita ma‘lumotlari asosida velosipedchilar va avtotransport foydalanuvchilari manzilga tez yetib boruvchi marshrutni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu mobil ilova orqali turli xildagi chegirmalarning taqdim etilishi foydalanuvchilarni uzoq muddatga saqlab qolish uchun juda puxta tuzilgan marketing strategiyalaridan biri sifatida ko‘rishimiz mumkin. Aholining transport xizmatiga bo‘lgan ehtiyoji kundan-kunga ortiq borayotganligi sababli eng yaxshi variantlar orasidan xavfsiz, tezkor va aniqligi kafolatlangan xizmatlarni Grab mobil ilova taqdim etib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Thet Naing Htoo. Use of Grab – like services// Department of Civil & Environmental Engineering.16th May, 2021.
https://www.researchgate.net/publication/358279394_Use_of_Grab_-_like_services
2. ¹ Grab. (2018, November 13). KASIKORNBANK and Grab join hands to move Thailand towards a digital future. Retrieved from https://www.grab.com/th/en/press/business/kbank_and_grab/
3. Yulchiyev A. O., G‘ofurov J. Q “ Turizm sohasida xizmatlar sifatiga tasir etuvchi omillarning sabab oqibat bog‘lanishlari tahlili” //Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi 6-son.2023,77-82.



4. Axmatova M.E. Turizm va transport xizmatlarining bir biri bilan uzviy bog'liqligi// Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovasion jurnal. 2021,86-91b.
5. Akhmatova M.E. International connection of tourism and transport services// “LOGISTICS AND ECONOMY” scientific-electronic journal. 2022, 20-24b.
6. Axmatova M.E. Turizm va transport xizmatlarining bir biri bilan uzviy bog'liqligi// Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovasion jurnal № 2(2)2021, ISSN 2181-2551. B.86-91.
7. Akhmatova M.E., HamroyevH.R. The role of innovative technologies in improving the quality of transport services// World Bulletin of Management and Law (WBML), Volume-3, October-2021. ISSN 2749-3601. Page. 4-8. (Journal Impact Factor: 7.424